

Aziz Nesin. Tilingni tiy! (hajviya)

U 1915 yili tug‘ildi. Uyida yig‘lagani qo‘yishmadi. Onasi qo‘lini bigiz qilib tahdid qildi:

- Ovozingni o‘chir!

Kulish ham, yig‘lash ham mumkin emasdi. Otasi ham zug‘um qilardi:

- Jim bo‘l!

Agar uyda mehmonlar bo‘lsa, uni ogohlantirishardi:

- Jimgina o‘tir, shovqin solma!

Agar onasi uyda yolg‘iz qolsa, qulog‘iga quyardi:

- Baqirma, bir pasgina tinchlik bo‘lsin!

Shu tariqa u yetti yoshta to‘ldi.

* * *

U maktabga qatnay boshladi. Dars paytida endi og‘iz ochgan ham ediki muallim o‘shqirib qoldi:

- Gaplashma!

Uni doskaga chaqirishganda doimo uqtirishardi:

- Sendan nimani so‘rashsa, faqat shu haqda gapir. Ortiqcha javrama.

Shu tariqa o‘n ikki yoshta to‘ldi.

* * *

U o‘rtalik maktabga qatnay boshladi. Endi gapirmoqchi edi, og‘ziga urishdi:

- Sendan so‘rashayotgani yo‘q.

Direktor unga « Tilni tiygan boy bo‘lar» degan maqolni eslatib qo‘ydi.

Turk tili muallimi shunday dedi:

- Ikki marta eshitib, bir marta gapir. Odamning ikkita qulog‘i, bitta og‘zi bor.

- Jim bo‘l!

- Ovozingni o‘chir!

- Javrama!

Shu tariqa o‘n besh yoshta to‘lib qoldi.

* * *

U litseyga qatnay boshladi. Birinchi eshitgan gapi shu bo‘ldi:

- Gapirgandan ko‘ra jim o‘tirgan yaxshi!

- Ko‘p javrama!

- Og‘zingni yum!

- Jim bo'l!

Shu tariqa o'n to'qqiz yoshga to'ldi.

* * *

U universitetga o'qishga kirdi. Uyda shunday nasihat qilishdi:

- Kattalar gapirganda kichiklar jimgina quloq soladilar.

Onasi tayinladi:

- So'z – kattadan, suv – kichikdan.

Professor bir kuni shunday dedi:

- Tilingni tiyib yur!

Shu tariqa yigirma uch yoshga to'ldi.

Harbiy xizmatga chaqirildi. Bo'linma komandiri buyurdi:

- Jim bo'l, itvachcha!

Serjant :

- Javrashni bas qil!

Kapitan:

- Og'zingni ochma!

* * *

Uni mirshabxonaga chaqirishdi:

- Sendan so'ralayotgani yo'q!

Komissar do'q urdi:

- Jim!

* * *

U ishga kirdi. O'rtoqlari barmoqlarini og'ziga bosib shivirlashdi:

- Tss!

- Xudo haqqi, og'zingni yum! Boshingga bir baloni orttirib olma. Ehtiyyot bo'l!

Boshliqlar ogohlantirib qo'ydi:

- Har narsaga burningni tiqma!

- Buning senga dahli yo'q!

- Nima ishing bor?

- Aralashma!

* * *

Uylandi. Xotini tayinladi:

- Sendan iltimos, har baloga burningni suqma!

Farzandlar tug‘ilib, voyaga yetishdi. Ular aytishdi:

- Ota, bu ishga aqling yetmaydi. Aralashib o‘tirma!

* * *

Bu odam – qisman men, qisman siz, qisman hammamiz!

Rivoyat qilishlaricha, o‘tmishda xotinlar pishirayotgan ovqatiga erkaklarning tilini qirqib qo‘yadigan bir og‘u qo‘shib qo‘yarmish. Bizning yemishimizga ham shunaqa og‘u qo‘shilganga o‘xshaydi. Bir qarab ko‘ringchi, tilingiz bormikin? Biz tilimizni yutib qo‘yganmiz! Og‘zimiz boru ammo tilimiz yo‘q.

* * *

Mana endi o‘sha qisman menga, qisman sizga o‘xshaydigan odam so‘z erkinligini talab qilib yuribdi.

Uning gapirgisi kelyapti.

Ammo unga buyurilyapti:

- Tilingni tiy!

Mening unga shunday degim keladi:

- Gapir! Gapir! Gapisang-chi! Ammo nima deysan? Qanday gapirasan? Tilimiz bormi o‘zi?..

Shodmon Otabek tarjiması